



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### YUQORI SINF O'QUVCHILARNI EMOTSIONAL INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Siddiqov Baxtiyor Saidkulovich

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

Otajonova Barnoxon Sobirjonovna

Farg'ona davlat universiteti pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi magistranti.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi.

#### ANNOTATSIYA

Ta'lim muassaslaridagi yuqori sinf o'quvchilarida ta'lif va tarbiya tizimi va farzandlarimizning rivojlanayotgan qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga, ularning intellektual imkoniyatlariga asoslanib, kuchli shaxslar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. SHu bois ham yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish, ularning intellektual bilimlarini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash dolzarb ijtimoiy ehtiyojlar pedagogik muommolar sifatida

**Kalit so'zlar:** intellektual rivojlantirish, emotsional intellektual imkoniyatlar, psixologiya va pedagogikada aql-zakovat va intellekt muammosi.

#### KIRISH

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Shu o'rinda ta'lif sohasida O'zbekistonda yuqori sinf o'quvchilarni emotsional intellektual rivojlantirish, bilim berish va ta'lif sifatini oshirishda nimalarga etibor qaratish kerak? Yurtimizda so'nggi yillarda yuqori sinf o'quvchilarni ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Umimiy o'rta ta'lif sohasida tub burilish vaqt keldi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim muassaslaridagi ta'lim va tarbiya tizimi esa farzandlarimizning rivojlanayotgan qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga, ularning emotsiyal intellektual imkoniyatlariga asoslanib, kuchli shaxslar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. SHu bois ham yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularning emotsiyal intellektual bilimlarini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash dolzarb ijtimoiy ehtiyojlardan sanaladi.

Intellektual rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, hozirgi kundagi ilmiy taddiqot ishlari asosan integratsiyalashgan dastur asosida fanlararo umumlashtirish bilan olib borilmoqda<sup>1</sup>. Bu esa o'z navbatida bola faoliyatining aniq turlarini emas umumiyligi qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bundan kelib chiqadiki, emotsiyal intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish asosida o'quvchi o'quvchilarning ta'limini tashkil etish va uning mazmuniy ta'minoti haqida bir nuqtai nazarning yo'qligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda intellektual so'zining ma'nosini aytib o'tish o'rinnlidir. Intellektual – so'zining lug'aviy ma'nesi aqliy jihatdan etuklik, fahm-farosat, aql-idrok, zakovat, zukko ya'ni zakovatli inson, zukko bo'lish demakdir.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha "Intellekt" so'zining lug'aviy ma'nesi lotincha so'z - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu — intellekt va u bilan bog'liq qibiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi.<sup>2</sup>

Psixologiya va pedagogikada aql-zakovat, ya'ni intellekt muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ist'edod, qadriyat, ma'naviyat hamda aql zakovat etnopsixologik nuqtai-nazaridan millat ko'zgusi hisoblanadi.

Aql zakovat insoniyat yashab turgan jamiyatning ruhiy-manaviy omilidir. Binobarin, aqliy imkoniyat mazmuni va mohiyati bevosita mujassamlashgan bo'ladi. Jamiyat takomillashuvining bosh omili bu - barkamol avlod, keng ko'lamli, teran fikrlovchi, bilimdon shaxslarning shakllanishidir.

<sup>1</sup> Ильясов И.И. Новый взгляд на умственное развитие и развивающее обучение // Вопросы психологии. - 1996. - №3. - С. 138-141.

<sup>2</sup> В.М.Каримова, "Психология" Ўқув қўлланма Т. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2002. 121-6



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Jamiyat taraqqiyoti teran fikrlovchi, aqli shaxslar rivojiga bog‘liq bo‘lmoqda, bunda jamiyat inson intellekti rivojini ta’milasa, inson ana shunday jamiyat rivojlantirgan intellekti bilan jamiyatni taraqqiy ettiradi.

Pedagogik tadqiqotlar taraqqiyotining zamonaviy bosqichlarida intellektual salohiyatli etuk barkamol kadrlarni etishtirish bo‘yicha ko‘plab asarlar yaratilgan.

M.Inomova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, R.Safarova, M.Quronov, A.Choriev, J.G.Yo‘ldoshev, J.X.Hasanboev, X.Ibragimov, B.X.Raximov, M.H.Mahmudov, R.SH.Axliddinov, R.H.Jo‘raev, Sh.Q.Mardonov, O‘A.Jumanazarov, Z.Ismoilova kabi olimlar tomonidan yaratilgan asarlar shular jumlasidandir.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sharq mutafakkirlarining intellekt (aql) haqida bir qancha qarashlari mavjud bo‘lib ular nafaqat sharqda, balki g‘arbda ham ilmiy nazariy jihatdan o‘rganilib kelinmoqda. O‘rta Osiyoning emas, balki yaqin va o‘rta sharqning mashhur allomasi Abu Nasr Forobiydir. U o‘z davrining faylasufi, musiqachisi shoiri va qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U aql haqida risola asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. U “Aql haqida risola” asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida bir qancha ma’lumotlarni keltiradi. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglashi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanningrolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi.

U inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganidan mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, Forobiyning fikricha, mavjudodning eng buyuk va etuk mahsuli bu insondir, u o‘zining ongi aqli sezish organlari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o‘rab olgan mavjudodning mohiyatini tushunadi uning fikricha inson tanasi, miyasi sezgi organlari tug‘ilishidan mavjud lekin aqliy bilimi, ruhi intellektual aqliy hislatlari keyinchalik vujudga keladi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksakligining etuk mahsuli bo‘ladi va inson o‘z bilimlarini aqlini rivojlantirib, so‘ngra mavjudodning ibtidosi boshlanishi haqidagi ilmgaga etib boradi deb ko‘rsatadi.

Forobiy o‘simgilik, hayvon va insonga hos hususiyat va qobiliyatlarini quvvat deb atadi va ularni uchga ajratadi uning quvvatlar haqidagi klassifikatsiyasi organizmdagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixologik va fikrlash jarayonlariga ajratadi. Biologik jarayon barcha tirik organizmga fiziologik-psixologik jarayon hayvonlarga, aqliy jarayon ong faqat insonga xosdir.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida insonning barcha mavjudotdan ustunligini uning tafakkuri orqali ekanligini izohlaydi. SHuning uchun ham unga erdag'i barcha hayvonlar bo‘ysunadi, aks holda inson eng kichik hayvondan ham ojiz bo‘lar edi. Beruniy tashqi olamni bilishni asosan aqlga tayanishi va shuning uchun ham u barcha jonzotdan ustun turishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, aql hodisalarining birini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi. Lekin bilimning cheki yo‘q va hamma bilimni tez egallashi mumkin emas. Suuning uchun, inson o‘zi bilib olgan narsa bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o‘rganishga intilishlari shart. Ularning fikricha inson bilish tushuninish fikrlash muhokama qilish o‘ylab topish kabi iste’dodlarga ega.

Ibn Sinoning bu fikri materianing evolutsion taraqqiyotini asoslashga bo‘lgan fandagi dastlabki harakatlardan biri edi.

Bilish nazariyasida Taftazoniyning qarashlari Ibn Sinonikidan farq qiladi. Ibn Sino narsa hodisalar haqidagi ma'lumotlarni bilim deb qabul qilgan bo‘lsa, Taftazoniy ularni alohida his tuyg‘u va bilim o‘rtasidagi vositaviy bosqich deb tushunadi. Bilish jarayoni uchta shartni taqozo etadi.

1. His tuyg‘u organlari va ashyolar orasidagi o‘zaro ta’sir.
2. Bu omillarning inson ruhi tomonidan qabul etilishi.
3. Aqliy bilish uning fikricha, aqliy bilish hissiy bilishdan yuqoriroq. Qanday ishning muvoffaqiyatini 1-qandaydir umumiyl omil qobiliyat belgilaydi.

Taftazoniy fikricha, mantiq-tafakkurdagi xatoliklardan xalos qiladigan vosita bo‘lib, yangi bilimlar xosil qilish uchun zamindir mantiqiy bilish shakllari tasavvur va tasdiqdir. Biror ashyo yoki hodisani tasavvur etish va uning to‘g‘risida hokum chiqarishda asosiy o‘rinni til bajaradi. Biror ashyo yoki hodisa belgisi bo‘lgan so‘zlar biror bir mazmun tufayligina qandaydir ma’no kasb etadi. Taftazoniy fikricha, mantiq fani mavhum mantiqiy ong bilan bog‘langan bo‘lib, tushuncha va hukumni ifodalovchi so‘zlar va gaplarni tahlil etadi.

Shuningdek, intellektual yoshlik va intellektning rivojlanishining yuqori darajasi inson salomatligining umumiyl holati belgilarini taqozo etib, uning o‘zini uzoq vaqt yosh sezishini va o‘z tengdoshlariga nisbatan yosh ko‘rinishini ta’minlashlari olimlar tomonidan e’tirof etilgan.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### XULOSA

Inson barcha boshqa jismlar ega bo‘lgan hislatlarga egadir, lekin u boshqa jismlarda bo‘limgan qobiliyat va kuchga ya’ni aql va so‘zlash qobiliyatiga ham egaki, bu kuch uni tabiatning boshqa jismlaridan ajratib turadi va unga tabiat ustidan hokim bo‘lish imkoniyatini beradi.

### Foydanalilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiyning fikricha, aql yordamida inson uni o‘rab olgan mayjudodning mohiyatini tushunadi, inson tanasi, miyasi sezgi organlari tug‘ilishidan mavjud, lekin Ilyasov I.I. Novyu vzglyad na umstvennoe razvitiie i razvivayushchee obuchenie // Voprosy psixologii. - 1996. - №3. - S. 138-141.
2. K.Hoshimov, S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. T. “O‘qituvchi” 1995 y. 1-jild
3. I.P.Ivanov, M.E. Zufarova, “Umumiyy psixologiya” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti T: 2009, 376-b
4. Abdulla Qodiriy “Ma’naviyat yulduzları” Xalq merosi nashriyoti, T: 2001
5. Kaykovus, Qobusnoma /Nashrga tayyorlovchi: S.Dolimov. – T.: O‘qituvchi, 2006
6. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Birinchi kitob. T., G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1975
7. Ibrohimov A va boshqalar. Vatan tuyg‘usi. T., 1996
8. K.Hoshimov, S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: O‘qituvchi. 1999, 2-jild
9. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
- 10.YUsuf Xos Xojib. qutadg‘u bilig (so‘z boshi muallifi B.Tuxliev). — T.: YULDUZCHA, 1990.
- 11.Buyuk siymolar, allomalar (O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar) /Nashrga tayyorlovchi M.M. Xayrullaev. – T.: Xalq merosi, 1-k. 1995.
- 12.E.To‘raqulov, S.Rahimov. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim tarbiya haqida “O‘qituvchi” T:1992
- 13.G‘oziev E.G“Psixologiya” o‘quv qo‘llanma T: 1994
- 14.G‘oziev E.G“Tafakkur psixologiyasi” T: “O‘qituvchi” 1991
- 15.G‘oziev E.G‘ va SH.Usmonov “Intellekt psixologiyasi” T: “Universitet” 1996
- 16.G‘oziev E.G‘, R.Toshimov, I.Mamatov “Aqliy kamolotingizni bilasizmi” T:



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

1996

- 17.G‘oziev E.G“Ontogenet psixologiyasi” T.: “Noshir 2010
- 18.G‘oziev E. Psixologiya (YOsh davrlari psixologiyasi). – T.: O‘qituvchi, 1994.- 224 b.
- 19.Psixologiya. Uchebnik. / Otv. red. prof. A.A.Krylov. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.
- 20.A.Zunnunov, B.To‘xliev, X.Ma’sudov. “Pedagogika tarixi”, “SHarq” T: 2002 192-b.
- 21.Brushlinskiy A.V “Psixologiya mishleniya i problemnoe obucheniya” M: “Znaniya” 1993
- 22.M.Asranbaeva Iqtidor va qobiliyat diagnostikasi. Muammoli ma’ruzalar to‘plami. Namangan 2005.
- 23.Qodirov B.R “Sinf zukkolarini tanlash metodikasi”. T,1998 y.
- 24.aqliy bilimi, ruhi intellektual aqliy hislatlari keyinchalik vujudga keladi.
- 25.Abu Ali ibn Sino fikricha, har bir aqlning o‘z sohasi va ruhi bor. Aqllar mana shu tarzda yuqoridan quyiga qarab tushadi. Shu bilan birga ushbu bobda chet el olimlarining mavzu yuzasidan ilmiy qarashlarining nazariy tahlili keltirib o‘tilgan.